

INTERFAOL DARSLARDA TALABALARNING MUSTAQIL FAOLIYATLARINI TASHKIL ETISH YO‘LLARI.

*M.Q.Yo‘ldoshev – o‘qituvchi JDPU,
D.E.Yo‘ldosheva – 27 maktab o‘qituvchisi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada, Texnologik ta‘lim darslarida talabalarning mustaqil faoliyatini tashkil qilishda interfaol metodlarning o‘rni, amaliy mashg‘ulotlarni kichik guruhlar shaklida tashkil qilinishi amaliy ko‘nikma va malakalarni mustaqil o‘zlashtirishi yaxshi natija berishi asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar. Konferensiyalar, munozara, mushoira, debat, texnologik ta‘lim, interfaol metodlar, kichik guruhlar, hamkorlik, reglament.

Texnologik ta‘lim darslarida amaliy mashg‘ulotlarni interfaol usullar yordamida kichik guruhlarda tashkil etishning o‘ziga xosliklari mavjud:

- Bu shaklda talabalar guruhlariga bo‘linib, har bir guruhga aniq, alohida vazifalar beriladi.
- Har bir guruh alohida (ya‘ni bir xil yoki tabaqalashgan) topshiriqlar ustida ishlaydi.
- Topshiriq o‘zaro muloqotga asoslanadi yoki biror etakchi rahbarligida tashkil etiladi.
- Guruhlarda topshiriq shunday amalga oshiriladiki, mashg‘ulot yakunida har bir ishtirokchi yoki guruh a‘zosining qanchalik hissa qo‘shganini hisobga olinadi.
- Guruh tarkibi doimiy bo‘lmasligi mumkin, ular shunday guruh a‘zosiga o‘zining maksimal xissasini qo‘shish imkoniyati yaratiladi.
- Guruhlar turli kattalikda shakllantirilishi mumkin. Odatda guruhlarda 4-6 nafar a‘zo ishtirok etadi.

Uning tarkibiga beriladigan topshiriqlarning mazmuni va xarakteriga qarab o‘zgartirishlar kiritilishi mumkin.

Guruhni shunday shakllantirish kerakki, har bir guruh tarkibida mustaqil ishlash ko‘nikmalariga ega bo‘lgan talabalarning bo‘lishi kutilgan natijalar beradi.

Guruhli o‘quv-biluv ishlarini tashkil etishda ayrim talabalarning individual yordamga muhtojliklari seziladi. SHunday vaziyatlarda o‘qituvchi tayyorgarlik darajasi yuqori bo‘lmagan talabalarga yordam berib borishi maqsadga muvofiq.

Texnologik ta'lim darslarida amaliy mashg'ulotlarni kichik guruhlar shaklida tashkil qilinishi amaliy ko'nikma va malakalarni mustaqil o'zlashtirishi uchun juda qo'l keladi. Bu holatlarda guruhlarda o'zaro muloqot o'rnatish, mustaqil ishlash yaxshi natija beradi.

Kichik guruhlar faoliyati yana o'quv-mavzuviy konferensiyalar, munozara, mushoira, debat, savol-javob, ma'lum mavzudagi kichik ma'ruzalar, qo'shimcha mashg'ulotlar, o'quv dasturlaridan tashqari mavzularni o'rganishda ham juda qo'l keladi. Bunday kichik guruhlar faoliyatida guruh a'zolari juda faollik ko'rsatadilar, o'z fikr, pozitsiyalarini himoya qilish ko'nikmalari shakllanadi. Guruh hamkorligida, kuchli talabalar kuchsiz talabaga yordam berish bilan ularni qo'llab quvvatlaydi, guruhda ham ijodkorlik vujudga keladi. Kichik guruhlar faoliyatini tashkil etishda guruh a'zolari orasida vazifalar aniq tasdiqlansa, o'zaro hamkorlik yo'lga qo'yilsa, samarali natijalar beradi. Kichik guruhlar faoliyatini guruhni tashkil etishda quyidagi elementlar hisobga olinmog'i zarur.

1. Talabalarni guruhlarda ishlashga tayyorlash, o'quv topshiriqlarini aniq qo'shish, guruhda ishlash bo'yicha tushuncha berish, reglament o'rnatish.

2. O'quv topshiriqlarini bajarish bo'yicha reja tuzish, uni muhokama etish. Uni hal etish yo'llarini aniqlash va ishni olib borish bo'yicha o'zaro vazifalarni taqsimlash.

3. O'quv topshiriqlarini bajarish bo'yicha ishni tashkil eta olish.

4. Guruhdagi ishni tashkil etishda ish jarayoni va a'zolar ish joylarini kuzatish va zarur hollarda yordamga kelish.

5. Guruhlarda topshiriqlarni bajarish natijalari bo'yicha axborot berish, sinfda munozaralar o'tkazish, ish jarayonini borishiga qo'shimcha va tuzatishlar kiritib borish. O'qituvchi tomonidan ishning natijalari bo'yicha xulosalar chiqarish va yakun yasash.

6. Guruhda topshiriqlarni bajarish jarayonida o'zaro tekshiruv va nazorat olib borishni yo'lga qo'yish.

7. Har bir guruhning ish natijalariga, sinf ishiga tahliliy baholar berish.

Guruh ishining muvaffaqiyatli chiqish o'qituvchining o'quv faoliyatini tashkil eta olish harakati, mahoratiga bog'liq.

YA'ni o'qituvchi guruhda ishtirok etayotgan har bir talabaning shaxsiy faoliyatini tashkil eta olish, har bir talaba o'qituvchi ko'magini olishi, ishning borishi bilan pirovard natijani muvaffaqiyatli ko'rsata olishga bog'liq. Guruhlar ishini tashkil etishda bir qator kamchiliklar sodir bo'lishi mumkin. Qiyinchiliklardan biri guruhlarini to'g'ri maqsadli shakllantira olish va unda ishni tashkil eta olinishidir. Guruhlarda ishlash jarayonida talabalar ayrim qiyin topshiriqlarni mustaqil echishga qiynaladilar. SHu sababli guruhlarda ishni tashkil qilishda umumiy ishni tashkil etish bilan bir vaqtda individual ishlarni ham tashkil etishga to'g'ri keladi. Bunday hollarda ko'pincha yaxshi natijalarga erishish mumkin. Umuman o'quv predmetlari bo'yicha beriladigan topshiriqlarning qiyinchilik darajasiga qarab guruhd ijodiy muhit yaratiladi. Guruhlarda ishlash davrida talaba, talaba-talaba orasida o'zaro hamkorlik, o'zaro yordam muhiti o'rnatilsa, guruhlar ishi kutilgan natijalarni beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Muslimov N.A., Qo'ysinov O.A. Kasb ta'limi o'qituvchilarini tayyorlashda mustaqil ta'limni tashkil etishning nazariyasi va metodikasi. Monografiya. – T.: O'zbekiston respublikasi, Fanlar akademiyasi "Fan" nashriyoti, 2009 yil.
2. Davlatov K., Vorobyov A., Karimov I. Mehnat va kasb ta'limi nazariyasi hamda metodikasi. - Toshkent., O'qituvchi, 1992 y.
3. M.Yo'ldoshev va D.Yo'ldosheva "Noanaviy darsning an anaviy darsdan farqli jihatlari" – Jizzax. Respublika ilmiy nazariy anjumani materiallari 2022.